KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARIDA LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Xidirova Dildora Zayniddinovna, Qarshi davlat texnika universiteti
pedagogika bo‘yicha falsafa fanlari doktori, dotsent
e-mail: xidirovadildora1982@gmail.com

Annotatsiya. Jahon tajribasiga ko‘ra, ta’lim tizimi ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyatning yangi darajasiga mos yangilanishi kerak. Shunday qilib, ta’lim tizimini yangilash haquqiy, muqarrar vazifadir. Bunga ko‘plab muhim omillar yordam beradi: o‘quvchilar uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning tobora ortib borayotganligi, turli mamlakatlardagi ta’lim muassasalarining tajribasi kabilar. Bundan tashqari, jahon miqyosida ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta’lim mazmunini loyihalash, samarali tashkil etish, o‘qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta’lim amaliyotida qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: O‘quvchilar, pedagog, ta’lim, faoliyat, kompetensiya, kasbiy, ko‘nikma, jarayon;

ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.

Аннотация. По мировому опыту система образования должна обновляться в соответствии с новым уровнем развития производства, науки и культуры. Таким образом, обновление системы образования является закономерной и неизбежной задачей. Этому способствуют многие важные факторы: возрастающая потребность учащихся в необходимых знаниях, умениях и способностях, опыт образовательных учреждений различных стран и другие. Кроме того, в мировом масштабе ведётся широкая работа по реформированию системы образования, внедрению образовательных технологий и повышению эффективности обучения, при этом особое внимание уделяется проектированию содержания образования, его эффективной организации, созданию новых методических моделей обучения и их применению в конкретной образовательной практике.

Ключевые слова: Ученики, преподаватель, образование, деятельность, компетентность, профессионал, навыки, процесс;

DIDACTIC CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROJECT COMPETENCE AMONG STUDENTS OF VOCATIONAL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.

Annotation. According to international experience, the education system must be updated in line with the new level of development of production, science, and culture. Thus, renewing the education system is a lawful and inevitable task. Many

important factors contribute to this: the growing demand among students for essential knowledge, skills, and abilities, as well as the experience of educational institutions in different countries. In addition, on a global scale, extensive efforts are being made to reform the education system, introduce educational technologies, and improve the effectiveness of teaching. Special attention is given to designing the content of education, organizing it effectively, creating new methodological models of teaching, and applying them in specific educational practice.

Key words: Pupils, teacher, education, activity, competence, professional, skills, process.

Kirish. Jahon tajribasiga koʻra, ta’lim tizimi ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyatning yangi darajasiga mos yangilanishi kerak. Shunday qilib, ta’lim tizimini yangilash haquqiy, muqarrar vazifadir. Bunga koʻplab muhim omillar yordam beradi: oʻquvchilar uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va qobiliyatlarning tobora ortib borayotganligi, turli mamlakatlardagi ta’lim muassasalarining tajribasi kabilar. Bundan tashqari, jahon miqyosida ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish boʻyicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta’lim mazmunini loyihalash, samarali tashkil etish, oʻqitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni muayyan ta’lim amaliyotida qoʻllashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ta’lim jarayoni sifatini oshirish, kasbiy ta’limda oʻquvchilarning kompetentligini shakllantirish, ta’lim jarayonini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish kasbiy faoliyat mazmunini modernizatsiya qilishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. 2022-yil 28-yanvardagi “2022-–2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli farmonida [1] mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini toʻliq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash tizimini kengaytirish vazifalari belgilangan. Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida kasbiy bilimlarni egallashni, oʻquvchilardan alohida shaxsiy sifatlar asosida ularni kasbiy faoliyatda qoʻllay olishni talab etadi.

Respublikamizda zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimining sifat darajasini ortishi, xalqaro standartlarga muvofiq ravishda malakali kadrlar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish, kasbiy ta’lim tashkilotlari bilan dunyodagi yetakchi kasbiy ta’lim tashkilotlari oʻrtasida hamkorlikni oʻrnatishga bugungi kunda alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Shu asosda, soʻnggi yillarda qabul qilinayotgan ta’limga oid bir qator hujjatlarda ta’lim jarayoniga oid bo’lgan innovatsion ta’lim texnologiyalari, oʻquv dasturlari, oʻquv-metodik, mobil-didaktik materiallarni keng joriy etgan holda oʻquvchilar hamda ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlar asosida rivojlantirish, kasbiy ta’limning oʻquv mashgʻulotlari jarayonida interfaol usullarini samarali qo’llash masalalari kasbiy ta’lim darajasini sifat jihatidan takomillashtirish hamda ta’limni tubdan rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab kelinmoqda. Shuni inobatga olgan holda, ilgʻor xorijiy tajribalarga tayangancha zamonaviy kasbiy ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, kompetentlilikka asoslangan innovatsion ta’lim muhitini shakllantira olish, kasbiy ta’limda oʻquvchilarning loyihalash kompetentliligini takomillashtirishga oid pedagogik mexanizmlarni yanada oshirish ehtiyojining yuzaga chiqishi uchun sabab hisoblanadi, buni amalga oshirish ma’lum pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirishga doir izlanishlarimiz davomida tadqiqot muammosini hal qilish va kasbiy ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishga bag’ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilib, o‘rganib chiqish taqozo etiladi. Shunga ko‘ra, kasbiy ta’lim o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, bilim, ko‘nikma, malakalarini zamonaviy talablarga mos holda shakllantirish, muhandislik ta’lim yo‘nalishlarining umumiy kompetensiyalari doirasida loyihalash kompetentligini rivojlantirish, ta’limda innovatsion texnologiya va yangicha yondashuvlardan foydalanish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy- tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

Respublikamizda pedagogika sohasi bo‘yicha akademik R.X.Djurayev tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida professional ta’limda o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlari hamda ta’limga texnologik yondashuv masalalari tadqiq qilingan [2].

N.A.Muslimovning tadqiqotlarida kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishi ilmiy masala sifatida talqin etib, uning nazariy-metodologik asoslari bilan birgalikda tarkibiy tuzilmasi ham asoslab berilgan. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ta’lim texnologiyalarning xislati shundan iboratki, unga qo‘yilgan maqsadga erisha olish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi. Shuningdek, mashg‘ulotning muvaffaqiyatli o‘tishini 80 foizi o‘quv jarayoni to‘g‘ri loyihalashtirilishi, o’quv jarayonini tashkil etish hamda uni amalga oshirish bilan bog‘liqdir. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini modellashtirish, ushbu jarayonni boshqarish usullarini rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. O‘quv jarayoni esa har bir o‘quv mashg‘ulotini loyihalash asosida amalga oshiriladi. Loyihalash faoliyati o‘qituvchining kundalik ishining tarkibiy qismlaridan biridir [3].

Ta’lim maqsadlari o‘quvchilar harakatlarida ifodalanadigan ta’lim natijalari belgilanishi masalalari atroflicha muhokama qilingan [4].

X.Sh.Kadirovning tadqiqot ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bo‘lg’usi pedagoglarda mediakompetentlilik bilim, ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasi hamda ko‘rsatkichlari yoritilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish – pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratish hamda ulardan foydalanishni nazarda tutishi ta’kidlangan. Nazariy manbalarning tahlili o‘quvchilarning kognitiv mediakompetentliligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ravishda foqdalanish:

- o‘quv-tarbiya jarayonining takomillashishiga, ta’lim sifati samaradorligini oshirishi;

- axborotni turli shaklda (ovoz, matn, video, grafika, animatsiyalar yordamida) berilishi o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini ortishiga, yuqori darajadagi ko‘rgazmalilik o‘quvchilarda mavzuning uzoq vaqt xotirada saqlanishini ta’minlashi;

- tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishga imkoniyat berishi bilan alohida ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib beriladi [5].

F.A.Umarova tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida, o‘quvchilarni loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirishda kasbiy ta’lim muassasalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida darajasini shakllantirish maqsadida bitiruvchilarni o‘zlashtirishlari zarur bo‘lgan dasturiy mahsulotlar ikki guruhga ajratiladi:

1) asosiy foydalanuvchi ko‘nikmalarini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan dasturiy mahsulotlar;

2) professional (yoki ixtisoslashgan) dasturiy mahsulotlar [6].

Kasbiy ta’lim muassasalari o‘quvchilarining loyihalash kompetentliligini oshirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlab olish uchun “loyihalash kompetentliligi” tushunchasini ishlab chiqish, uning mohiyati hamda mazmunini aniqlash juda zarur omil hisoblanadi. Shunga ko‘ra, “loyihalash kompetentliligi” tushunchasining mazmunini ochish, loyihalash kompetensiyasi tarkibini aniqlash, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash doirasida o‘rganilayotgan hodisaning xususiyatlarini oydinlashtirish vazifalarini, xususan, muhandislik ta’lim yo‘nalishlarining umumiy kompetensiyalari doirasida loyihalash kompetentliligini ko‘rib chiqish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari mohiyati va o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasida olimlar qator fikrlarni ilgari surganlar:

Agar biz ilmiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini ta’lim sharoitida davom ettira olsak, kompetensiya o‘quvchini tayyorlashning umumlashtira olingan talabidir, kompetensiya shaxsning xislati yoki xususiyati sifatida talqin etiladi, bu uning tajribasida aks etadi, ma’lum bir sohadagi faoliyat jarayoni bilan o’zaro uzviy bog‘liqdir.

Ushbu tadqiqotda taniqli mualliflardan so‘ng biz "Kompetentlilik" va "Kompetensiya" ta’riflarini ajratamiz, bunda birinchisi tashqi muhit tomonidan shaxsiylashtirilmagan; ikkinchisi faoliyat jarayonida o‘zlashtirishda aniq shaxsiy tajribaning majburiy mavjudligi bilan ajralib turadi.

Jahon iqtisodiyotining muhandislik sohasidagi globallashuvi sharoitida sertifikatlash bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarning xalqaro assotsiatsiyalari orqali muhandislarning kompetensiyalariga umumiy talablar ishlab chiqildi. Ularni quyidagi umumiy toifalarga ajratib chiqish mumkin [7]:

- fundamental, maxsus bilimlarning mavjudligi hamda foydalanish qobiliyati;
- tahlil etish hamda yechimlarni yaratish istagi;
- kasbiy hamda umuminsoniy axloq asoslarini bilish hamda uni qo‘llash;
- iqtisodiy asoslarni o’zlashtirish hamda ularni muammoli masalalarini hal etishda samarali foydalanish;
- jamoada ishlash qobiliyati, yetakchi bo‘lishga tayyorlik, samarali muloqot qilish;
- muammolarni hal qilishda ijodiy, tizimli yondashuvlar;
-innovatsion yondashuvni, loyiha boshqaruvi asoslarini, tashkilot sifatini boshqarishni tushuna olish hamda amalga oshirishga tayyorlik.

Keltirilgan ro‘yxatda allaqachon kompetensiyalarning tarkibida fundamental bilimlarni qo‘llash, iqtisodiy savodxonlik, ijtimoiy yo‘nalish mavjud [8].

Kompetensiya insonning ma’lum bir sohada (shu jumladan, professional) muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorligini aks ettiruvchi integral dinamik tavsifnomasi sifatida tushunilganligi uchun, loyiha kompetensiyasining ahamiyati ortadi, sababi ushbu jarayon universal kompetensiyalarni anglatadi, ya’ni kasbiy faoliyat hamda shaxsiy rivojlanish uchun zaruriy hisoblanadi.

Tadqiqotning mohiyatiga ko‘ra, “loyihalash kompetentliligi” mazmunini sintez qilish uchun “loyiha” tushunchasining mantiqini oydinlashtirib olish taqozo etiladi.

Tarixiy jihatdan loyiha tushunchasi ancha oldin qo‘llanila boshlangan, ya’ni u texnik sohalardagi hujjatlarda ko‘proq foydalanilgan. Jon Dyui loyihalash shartlarini qo‘llashni boshlang‘ich maktabda qo‘llashdan boshladi. Mashg‘ulotning birinchi kunlaridan boshlab bola o‘yinlarga, improvizatsiyalarga jalb qilindi, ekskursiyalar va badiiy havaskorlik faoliyatida qatnashdi. Bu shunday tizim ediki, bunda o‘quvchi

endi tayyor materialni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, u o‘qituvchi qo‘ygan masalani mustaqil hal qiladi. Bunday faoliyat jarayoni oldindan belgilangan sxema bo‘yicha qurilgan: qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi, ma’lumotlarni kuzatish, qidirish va to‘plash, mumkin bo‘lgan oqibatlarni aniqlash, muammoni shakllantirish, harakat rejasini belgilash, rejaga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatlar [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Loyiha pedagogik jarayon sifatida e’tiborni ma’lum bir muammoli masalaga hamda uning keyingi yechimiga qaratadi, shu bilan birga, to‘plangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni ko’zda tutadi, bu esa faoliyat jarayonini yoritadi.

Qator manbalarda “loyiha” tushunchasiga ta’riflar berilgan:

1. Webster lug‘atida: loyiha (inglizcha - loyiha) – rejalashtirib olingan faoliyat: o‘qish vaqtida bir guruh o’quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan maxsus yaratilgan tadqiqot, topshiriq, vazifa ko’rinishida bo’lishi mumkin [11].

2. Pedagogik atamalar lug‘ati: “loyiha – bu muayyan vaqt davomida pedagogik tizimni maqsadli ravishda o‘zgartirish bo‘yicha, belgilangan natijalar sifatiga qo‘yiladigan aniq talablarga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmuidir”.

3. Oliy ta’limda bo‘lajak mutaxassislarning umumiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan milliy talablarga ko‘ra: “loyiha – bu noyob mahsulot yoki xizmatni yaratish uchun mo‘ljallangan vaqtinchalik xarakterdagi maqsadli faoliyatdir”.

4. Loyiha – bu muayyan talablarga javob beradigan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan vaqt, xarajatlar va resurslar cheklovlarini o‘z ichiga olgan, boshlanish va tugash sanalari bilan muvofiqlashtirilgan hamda nazorat qilinadigan tadbirlar majmuidan iborat noyob jarayondir.

5. Loyiha – bu belgilangan davrlar, xarajatlar, samaradorlik parametrlari bilan aniq belgilab olingan maqsadlarga erishish uchun shaxs yoki tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan, belgilab olingan boshlanish hamda yakuniy nuqtalarga ega bo‘la olgan yagona muvofiqlashtira olingan harakatlar to‘plamidir.

Tahlil va natijalar. “Kompetensiya” hamda “Loyiha” tushunchalarining ta’rifidan kelib chiqib, shaxsning integrativ dinamik xususiyati faqat faoliyat jarayonida rivojlanadi hamda namoyon bo‘ladi. Keyin, "Loyihalash kompetentliligi" tushunchasini hisobga olsak, u loyihani amalga oshirish jarayonida rivojlanadi deb taxmin qilishimiz mumkin, keyin esa faoliyatning yetakchi turi loyiha faoliyati hisoblanadi. Shu munosabat bilan "loyiha faoliyati" toifasini ko‘rib chiqish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Avvalo, “faoliyat” komponent jarayoni kategoriyasining ma’nosini aniqlab olish lozim. Bugungi kunda inson faoliyati tushunchasi turli tavsif, talqin, tushunishga egadir, lekin asosiysi 1920 yillar hamda 1930 -yillarning boshlarida boshlangan faoliyat nazariyasidir. Psixologiyadan faoliyat nazariyasi pedagogikaga faoliyat yondashuvi shaklida o‘tdi. Biz pedagogik lug‘atda berilgan ta’rifga qo‘shilamiz: insonning aqliy jarayoni shakli sifatida talqin etilgan jarayon bo’lib, uning asosiy vazifasi shaxsning o‘zini o’zi hamda butun dunyoni o‘rganish, o‘zgartirishdir [10].

Shaxsiy-faoliyat yondashuvi nuqtai nazaridan kelib chiqib, loyihalash jarayonining bir qator asosiy tamoyillarini keltirib o’tish e’tiborga loyiqdir [64]: Yuqoridagi "faoliyat" toifasini tahlil etish asosida, shunga amin bo’lindiki, "loyiha" ning yuqoridagi ta’rifini inobatga olib, biz loyiha jarayonini tanlangan tizimning yo‘naltirilgan o‘zgarishini ko’zda tutuvchi shaxsning aqliy faoliyati shakli sifatida tushunamiz. Tahlil etilgan natijalarning mazmuni hamda jarayonlarning o‘ziga xosligi uchun mavjud belgilangan talablar doirasida, mumkin bo‘lgan vaqt chegarasi, mablag‘lar, resurslarning sarflanishi bilan bog‘liq bo’lgan jarayondir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot muammosi bo‘yicha adabiyotlar va meyoriy hujjatlarni tahlil qilish ilmiy bilimlarni tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq tizimlashtirishga imkon berdi, buning asosida quyidagi xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. "Loyiha kompetensiyasi" tushunchasi loyiha bilimlari va ko‘nikmalari, loyihaning o‘quv va darsdan tashqari faoliyatidagi tajribasi va unga motivatsion-qiymatli munosabatga yo‘naltirilgan to‘plamini aks ettiruvchi shaxsning integral dinamik xususiyati sifatida aniqlashtiriladi hamda kasbiy va shaxsiy sohalarda loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

Loyiha faoliyati tizimini qurishda asosiy yo‘nalishlar sezilarli darajada asoslandi:

-o‘quv materialini idrok etishga tayyorlikni shakllantirish;

-ijodiy izlanish holatlarini yaratish;

-dizayndagi shaxsiy ahamiyatni shakllantirish;

-loyihani amalga oshirish jarayonida o‘qitish talablari va operativ nazoratni taqdim etish;

-kasbiy yo‘nalishga e’tibor qaratish;

-muvaffaqiyatga turtki bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarga e’tibor qaratish.

Loyiha kompetensiyasini rivojlantirishning samarali tashkiliy-pedagogik shartlari belgilanadi:

- auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg’ulotlar mazmunini shaxsiy ahamiyatga ega va kasbiy yo’naltirilgan loyihalar tizimi bilan boyitish;

- bo’lajak mutaxassislarni kelajakda kasbiy faoliyatiga qo’yiladigan talablarga muvofiq o‘z ta’limiga nisbatan sub’ektiv pozitsiyasini yangilash sharoitida loyiha faoliyatiga jalb qilish;

- tanlangan mezonlar va darajalar bo’yicha dinamikani baholashga imkon beruvchi baholash va diagnostika vositalarini ishlab chiqish va qo‘llash orqali amalga oshiriladigan loyihalash kompetentligini rivojlantirish samaradorligini monitoring qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сонли “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги Фармони, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами //www.lex.uz

2. Джураев Р. Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. Дисс. докт. пед. наук. – Ташкент, 1995. 43-с.

3. Muslimov N. va boshqalar. Pedagogika (nopedgogik oliy ta’lim muassasalari uchun). – Toshkent: TDPU, 2013.

4. Urazova M. B. Bo‘lajak kasb ta’lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2015. 260-b.

5. Лобастов Г.В. Личност и ее определения (к 90-летию Е.В. Илевнкова). // Вестник РГГУ. Серия «Психология. Педагогика. Образование», 2014. №20. – С. 9-24.

6. Umarova F. A. Talabalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kiyimlarni loyihalash va modellashtirishni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. 51-b.

7. Рудской А. И., Боровков А. И., Романов П. И., Колосова О. В. Обшепрофессионалние компетенсии современного российского инженера. // Ж.: Висшее образовани в России, 2018. №2. С. 5-16.

8. Soares L. A ‘Disruptive’ Look at Competency-Based Education. // Center for American Progress, 2012. C. 1-12.

9. Рогачева ЙЕ.Й. Вклад Джона Дюи в осмисление консепсии нового учителя и его профессионалной подготовки. // Известия Волгоградского государственного педагогического университета, 2019. №1 (134) С. 12-17.

10. Иванова Л.В. Проектная деятелност как основа развития проектной компетентности учителя. // Интернет-журнал «Науковедение», 2014. № 23 (4). – С. 1-8.

11. Merriam-Webster. America’s most-trusted online dictionary [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: https://www.merriam-webster.com/dictionary/project.

12. Xidirova D. Z. Jamiyat va innovasiyalar. // Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalash kompetentlik sifatlarini rivojlantirishda integrasion yondashuv. Issue – 6 № 2 (2025) / ISSN 2181-1415. 55-56-b.

13. Xidirova D. Z. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў// Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini loyihalashtirishning pedagogik tizimi. 2-son, 2025 140-146-b.

14. Xidirova D. Z. Inson kapitali va mehnatni muhofaza qilish// kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini tayyorlashda ta’lim jarayonini loyihalash asosida rivojlantirish. №2 (5), 2025. 412-417-b.

15. Xidirova D. Z. Jamiyat va innovasiyalar. // Oliy ta’lim muassasalari talabalarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish. Special Issue – 07 (2025) / ISSN 2181-1415. 6-11-b.